

# «TASDIQLAYMAN»

Surxondaryo viloyat statistika

boshqarmasi boshlig'i

«13» — 03 — 2024y



## Sanoat va energetika statistikasi bo'limi

to'g'risida

NIZOM

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi Sanoat va energetika statistikasi bo'limining (keyingi o'rnlarda Bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, uming faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va riwojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi 707-sonli "Rasmiy statistika to'g'risida",gi O'zbekiston respublikasining qonuniga muvofiq qo'shimchalar kiritilgan hamda Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi (keyingi o'rnlarda boshqarma deb ataladi) ning tarkibiy bo'lmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, "Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi to'g'risida"gi Nizomga, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko'rsatmalariga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjalariга amal qiladi.

4. Bo'lim Sanoat va energetika statistikasi bo'yicha faoliyatini Boshqarmaning tarkibiy bo'lmalar, tumanlar va shahar statistika bo'lmari (keyingi o'rnlarda hududiy statistika bo'lmari deb ataladi) bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rnbosari bo'yinchida amalga oshiradi.

Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalar bo'yicha boshqarma boshlig'i birinchi o'rnbosari bo'yusunadi.

## 2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

### 6. Quyidagilar Bo'limning assiy vazifalari hisoblanadi:

a) Sanoat va energetika statistikasi bo'yicha yagona siyosatni ishlab chiqish va bajarish, statistikani tashkil qilishning samarali tizimini ta'minlash va davlat statistikasi sohasida muvofiqlashirish va funksional taribga solish sohasida:

Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, metodologik ishlarning reja-jadvali, viloyat statistika boshqarmasining ish rejalarini o'z vaqtida shakllantirilishida ishtirok etish;

statistik ma'lumotlar foydalanuvchilari talabini o'rgangan holda uzoq muddati maqsadlar va yo'nalishlar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni joriy etib borish;

Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining sanoat statistikasiga oid qismi bo'yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish;

Sanoat va energetika statistikasi sohasida davlat statistika pritsiplari va xalqaro standartlarga javob beradigan yagona statistika uslubiyotiga roya etilishini ta'minlash; ishlab chiqiladigan me'yoriy-huquqiy hujjalr loyihalari Bo'limning vakolati doirasidagi takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish.

b) xalqaro standartlarga javob beradigan yagona statistik uslubiyotni va davlat statistika kuzatuv shakllarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar tayyorlash va joriy etish sohasida:

Sanoat va energetika statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlasshing zamonaviy metodologiyasi va metodikalarni keng joriy etish yo'lli bilan statistik kuzatuvlar tizimini qabul qilingan xalqaro amaliyotga yanada moslashtirishni amalga oshirish;

Sanoat va energetika statistikasi bo'yicha davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar tayyorlash, amaliyotga joriy etish, statistik kuzatuvlar o'tkazish usullarini aniqlash;

davlat statistika sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjalarni ishlab chiqishda Bo'lim vakolati doirasida ishtirok etish;

Sanoat va energetika statistikasi sohasida xolis, sifatlari va dolzarb hisobot ma'lumotlarini tayyorlashni muvofiqlashirish va idoraviy kuzatuvalar shakllarini kelishishda ishtirok etish;

foydalananuvchilarning statistik ma'lumotlarga bo'lgan talabiga muvofiq, Sanoat va energetika statistikasi sohasi bo'yicha rivojlanayotgan xorijiy tajribani o'rganish, umumlashtirish va tarqatish;

Sanoat va energetika statistikasi sohasida xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlar reyting baholarini tuzish uchun foydalaniadijan axborot manbalarini o'rganishni tashkil etish, ular asosida shakllantiriladigan va tarqatiladigan statistik ko'rsatkichlar tarkibini yaxshilash choradibirlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

Sanoat va energetika statistikasi bo'yicha davlat statistika hisobotlari tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

v) sanoat va energetika statistikasiga oid hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:

Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining sanoat va energetika statistikasiga oid qismini bajarilishini ta'minlash;

viloyat, hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari bajarilishi bo'yicha davlat statistika kuzatuvlarini Bo'lim vakolati doirasida tashkil etish va amalga oshirish;

sanoat statistikasiga oid davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda, zarus hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ishni, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarini taskkil etish;

sanoat statistikasiga oid ko'rsatkichlarining statistik hisobini yuritish, viloyat bo'yicha muhim jarayonlarining birlamchi statistik tahlilini amalga oshirish;

statistik hisobot ko'rsatkichlarini tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini hamda statistik ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlami amalga oshirish;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga sanoat statistikasiga oid davlat statistika hisoboti ko'rsatkichlarini ishonchli taqdim etishda har tomonlama ko'maklashish;

Bo'lim vakolatiga kirdigan masalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritiilishi, uning muntaзам ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlash;

Sanoat va energetika statistikasi sohasiga oid statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

qonunchilikka muvofiq, Bo'lim ish faoliyatida shakllangan arxiv hujjalarni jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarni amalga oshirish.

g) *davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini belgilangan tartibda sanoat statistikasiga oid axborotlar bilan ta'minlash sohasida:*

milliy va xorijiy foydalanuvchilarining keng ommasi uchun sanoat statistikasiga oid ko'rsatkichlarni maksimal darajada shaffofligi va oshkorligini, xalqaro statistik to'planlar uchun tayyorlanishimi ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun sanoat sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahiliy ma'lumotlar va press-relizlar tayyorlash;

sanoat sohasini tawsiflovchi tezkor va sifatlari statistik ma'lumotlarni tayyorlashni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosi yuzasidan Bo'lim vakolati doirasida yillik, choraklik va oylik statistik hamda tahiliy materiallarni tayyorlashda ishtirok etish;

sanoat statistikasiga oid statistik kuzatuvalr va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha taskkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etish.

7. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Sanoat va energetika statistikasi sohasi uslubiyati, statistika ishlarni taskkil etish va ularni bajarish masalalari bo'yicha viloyat statistika boshqarmasining tarkibiy bo'lmalari va hududiy statistika organlariga yordam ko'rsatadi;

jismoni y va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda murojaat egalariga javoblar tayyorlaydi;

Boshqarma rahbariyatining topshiriqlari va foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan Sanoat va energetika statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

Bo'limning uslubiy, iqtisodiy, tashkiliy va statistik ishlari rejalarini shakllantiradi va ularning ijrosini ta'minlaydi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'dirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyati ko'rib chiqishi uchun tahliliy va boshqa materiallarni tayyorlaydi;

davlat idoralari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini belgilangan tartibda sanoat statistikasiga oid statistik ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

Bo'lim ish uslubini takomillashtirib boradi, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqida bajarilishini ta'minlaydi, Bo'lim xodimlari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarini o'z vaqida va sifatlari bajarilishi bo'yicha mas'uliyatini oshirib boradi;

Viloyat statistika boshqarmasining tarkibiy bo'limmali hamda hududiy statistika organlari bilan birgalikda Sanoat va energetika statistikasi sohasida axborotlarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

Davlat statistika ishlarni ishlab chiqarish dasturining Sanoat va energetika statistikasi qismi bo'yicha vazifalar ijrosini ta'minlaydi;

hududiy statistika idoralari tomonidan, Sanoat va energetika statistikasi sohasiga oid davlat statistika kuzatuvlarini yagona statistika uslubiyoti asosida tashkil etish ishlarni muvofiqlashtiradi;

sanoat statistikasiga oid davlat statistika hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish va elektron hujjat aylanishi tizimimi joriy qilish ishlarni tashkil etadi, bu yo'nalishda hududiy statistika organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, Sanoat va energetika statistikasi asosiy ko'rsatkichlarining takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasini yuritadi;

Bo'lim o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

### **3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi**

**8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:**

viloyat statistika boshqarmasi bo'limmali va hududiy statistika organlaridan o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

Sanoat va energetika statistikasi sohasida ishlarni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha viloyat statistiki boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

davlat statistika kuzatuvi shakllarini o'zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo'yicha takliflar berish;

hududiy statistika bo'limlari tomonidan Sanoat va energetika statistikasi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarni muvofiqlashtirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan va boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda ularning vakolatxonalarini va filiallаридан) davlat statistika hisobotlarini belgilangan tartibda olish hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanish;

uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

Sanoat va energetika statistikasi sohasiga oid davlat statistikasi kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek rasmiy statistik axborotlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

sanoat statistikasiga oid ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliliqi va xolisonaligini eksperimentizadan o'tkazish;

Sanoat va energetika statistikasi sohasidagi davlat statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish va yig'ma davlat statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

seminar va yig'ilishlarda, shuningdek xalqaro seminar va yig'ilishlarda ishtirok etish;

Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, viloyat statistika boshqarmasining ish rejalar, Bo'lim ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo'yicha viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Boshqarma bo'limlari bilan hamkorlik qilish.

**9. Bo'lim quyidagilar uchun javobgar:**

o'ziga yuklangan vazifalarini samarali va lozim darajada bajarish; vakolatiga kiruvchi tablibiy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash; davlat statistikasi prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalananlayotgan usullar va metodikalarini doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjalarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

#### **4-bob. Bo'limning tuzilmasi**

**10. Bo'limning tuzilmasi o'z ichiga Bo'lim boshlig'ini, shuningdek:**

Bosh mutaxassis;

Yetakchi mutaxassis.

**11. Bo'limga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.**

12. Bo'lim boshlig'i va mutaxassislari viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

- 13.** Sanoat bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni va sanoatni rivojantirish dasturlarining indikatorlarini shakllantirish bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi: sanoat sohasida maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi bo'yicha oylik, choraklik va yillik statistik hamda tahliliy malumotlarni tayyorlash va taqdim etish; tahliliy jadvallar, press-relizlar, ma'ruzalar va statistik to'plamlarni tayyorlash, sanoat sohasi masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar savolhomalarini to'ldirish; dinamik qator ko'rsatkichlarini yuritish;
- ma'lumotlar taqdim etish va axborot-tushuntirish tadbirlarini qo'shgan holda respondentlar va axborot foydalanuvchilarini bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borish; viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojantirish ko'rsatkichlarini sanoat sohasida tahliliy axborotlarni shakllantirish jarayonida mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar keng doirasi uchun statistik axborotlarni imkon darajasida shaffofligi va oshkorligini ta'minlash.
- 14.** Sanoat ishlab chiqarish sohasida tizimli statistik kuzatuvlari bo'limi quyidagilarni analga oshiradi:
- sanoat ishlab chiqarish statistikasi bo'yicha axborotlarni Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan ishlar va muddatlar bo'yicha yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, chop etish va tarqatish;
  - sanoat ishlab chiqarish sohasi bo'yicha muhim indikatorlarni baholash va hisob-kitobini yuritish, barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari uchun ma'lumotlar tayyorlash;
  - sanoat ishlab chiqarish statistikasi axborotlarni shakllantirish masalalari bo'yicha hududlar miqyosida tegishli mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish;
  - sanoat ishlab chiqarish sohasi bo'yicha statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish va saqlashning zamonaviy usul va uslubiyatlarni keng joriy qilgan holda statistik kuzatuvlarni tashkil etish va umume'tirof etilgan xalqaro amaliyotga moslashtirib borish.
- 15.** Energetika, energiyaning qayta tiklanadigan manbalari va energosamaradorlik statistikasi energosamaradorlik hisob-kitoblar borasida quyidagilarni amalga oshiradi:
- energetika, energiyaning qayta tiklanadigan manbalari va energosamaradorlik statistikasi bo'yicha axborotlarni Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan ishlar va muddatlar bo'yicha yig'ish, qayta ishslash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, chop etish va tarqatish;
- hududiy statistika organlari tononidan energetika, energiyaning qayta tiklanadigan manbalari va energosamaradorlik statistikasi sohasiga oid davlat statistika kuzatuvlarni yagona statistika metodologiyasi asosida taskil etish ishlarini muvofiqlashtirish;
- energetika, energiyaning qayta tiklanadigan manbalari va energosamaradorlik statistikasi bo'yicha davlat statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rovnomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- energetika, energiyaning qayta tiklanadigan manbalari va energosamaradorlik statistikasi bo'yicha axborotlarning mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun ochiqligini ta'minlash.

## **5-bob. Bo'limning faoliyatini tashkil etish**

**16. Bo'limning ishi O'zbekiston Respublikasining "Statistikasi to'g'risida"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlari dasturi, Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlari ishlab chiqish dasturi, Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi to'g'risida Nizom, mazkur Nizom, Statistika agentligi raisi va boshqanna boshlig'ining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Statistika agentligining ish rejalarini hamda viloyat statistika boshqarmasining ish rejalarini va bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.**

Bo'limning ish rejasi boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan boshqarmaning ish rejalarini asosida shakllantiriladi va boshqanna boshlig'ining birinchi o'rinosari tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarining funksional vazifalari bo'lim boshlig'i tomonidan bo'limga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va boshqanna boshlig'ining birinchi o'rinosari tomonidan tasdiqlanadi.

## **17. Bo'lim boshlig'i:**

Bo'limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, mutaxassislarining ishini tashkil qiladi, Bo'limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajariishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsuya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazzolash choralarini bo'yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Bo'limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va boshliqning birinchi o'rinosariga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

viloyat statistika boshqarmasining yig'ilishlari va majlislarida, shuningdek viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatining topshirig'iga binoan Bo'lim tasarrufiga kiruvchi masalalar bo'yicha idoralararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida ishtirot etadi;

Sanoat va energetika statistikasi sohasida normativ va metodologik hujatlamani va davlat statistika kuzatuvlari shakllari takliflarini ekspert jihatdan puxta ishlab chiqilishini tashkil qildi; viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i va uming o'rinosarlarining topshiriqlariga muvofiq tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo'yilgan vazifalarni yanada samarali amalgaga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

Sanoat va energetika statistikasi bo'yicha uslubiy hujatlamni qo'llash bo'yicha statistika bo'limmalarining rahbarlari va mutaxassislariga maslahat va uslubiy yordam ko'rsatadi; viloyat statistika boshqarmasining va Bo'limning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy va boshqa materiallarni o'z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta'minlaydi;

Bo‘lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘Idirish choralarini ko‘radi;

Bo‘lim kadrlari zahirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zahirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta‘minlaydi;

Bo‘lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjalarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnomma berish bo‘yicha yig‘iliishlar o‘tkazadi; ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o‘z vaqtida ijo etilishini qat’iy nazorat qilish bo‘yicha ishlarni taskil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo‘yicha ishlarining belgilangan tartibiga amal qilinishini ta‘minlaydi.

18. Bo‘lim boshlig‘i vaqtinchalik bo‘lмаган taqdirda uning vazifasini bosh mutaxassis bajaradi.

#### 19. Bo‘lim bosh mutaxassis:

funktional vazifalariga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflarning sifatlari, ishonchli va o‘z vaqtida tayorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoniyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib chiqadigan davlat statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

byulletenlar, to‘plamlar, ma’ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlaydi;

muhim indikatorlarni baholaydi va hisob-kitobini yuritadi;

davlat statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so‘rovnomalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

statistik ma'lumotlarni sharhlash, statistik kuzatuv blankalarini to‘idirish masalalari, ma'lumotlarni yig‘ish va qayta ishlasht usublari, statistik hisob-kitoblar o‘tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchliligini ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha maslahatlar berish;

asosiy statistik ko‘rsatkichlarning dinamik qatorlarini yuritadi va doimiy ravishda yangilab boradi;

bo‘lim boshlig‘ining topshirig‘iga muvofiq jismoni y va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko‘rib chiqish uchun zarur materiallarni tayorlaydi, ularda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilish bo‘yicha loyihani tayyorlaydi;

Statistika agentligining va Boshqarmaning ish rejalarida ko‘zda tulilgan masalalarni o‘rganiшими va chora-tadbirlarning amalgaga oshirilishini ta‘minlaydi;

Bo‘lim boshlig‘i bilan birga bo‘lim faoliyatini takomillashtirish, Davlat statistika ishlarni ishlab chiqarish dasturini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

xodimlar tomonidan davlat va tijorat siriga riosa qilinishini hamda bo‘lim (shu‘ba)ga kiruvchi materiallarni va bo‘lim (shu‘ba)dan chiquvchi materiallarning nusxalarini saqlanishini ta‘minlaydi;

statistik kuzatuvlarning elektron ma'lumotlar bazasi saqlanishini va asosiy statistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik qatorlar yuritilishini nazorat qildi;

Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar hajmini baholash uchun zarur bo'lgan materiallarni tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi; vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

**20. Bo'llim yetakchi mutaxassisi:**

funktional vazifalariga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflar va hujjat loyihalarning sifatlari, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib chiqadigan davlat statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

davlat statistika hisobotlarni belgilangan muddatlarda sifatlari taqdim etilishini nazorat qiladi, olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi, ular asosida jamlamma ma'lumotlar jadvallarini shakllantiradi, asosiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash ishlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlashda ishtirok etadi;

bo'llim ishlarining samaradorligi darajasini oshirish, ish uslubi va metodlarini, uni tashkil qilishni yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha choratadbirlarni amalga oshiradi;

statistik ko'rsatkichlarni ishonchliliqi, ob'ektivligi, to'liqligi va tizimliigini ta'minlashda ishtirok etadi;

davlat statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rovnomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

statistik ma'lumotlarni sharhlash, statistik kuzatuv blankalarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashtirish usulublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchiligidini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar berishda ishtirok etadi;

bo'llim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallar va ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

ish yuritishni olib boradi, bo'linda hujatlarning o'tish tartibini tashkil qiladi, hujatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlash va o'z vaqtida topshirishni ta'minaydi; rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi; vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.